TA’LIM MUASSASALARIDA OILA-MAHALLA-MAKTAB HAMKORLIGINI TASHKIL ETISHDAPEDAGOGIK HAMKORLIK

Djuraev Risbay Xaydarovich
pedagogika fanlari doktori, akademik,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo‘lim mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada shiddatli axborot almashinuvi davrida yoshlar ma’naviy dunyosida salbiy bo‘shliq vujudga kelishining oldini olish va ularda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishda pedagogik hamkorlikning o‘rni yoritilgan. Ta’lim muassasalari, oila, mahalla va jamoatchilik tashkilotlarining o‘zaro tizimli hamkorlik tamoyillari hamda asosiy vazifalari atroflicha tahlil qilingan. Yoshlarni axborot xurujlari va ma’naviy tahdidlardan himoyalash, ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash hamda mustaqil fikrlaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda o‘qituvchi va ota-onalarning birgalikdagi mas’uliyati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik hamkorlik, oila, mahalla, maktab, ma’naviy-axloqiy tarbiya, mafkuraviy immunitet, globallashuv, milliy qadriyatlar, ota-onalar mas’uliyati, komil inson.

Аннотация: В данной статье освещается роль педагогического сотрудничества в предотвращении возникновения негативного вакуума в духовном мире молодежи в период интенсивного информационного обмена и формировании у них чувства уважения к национальным и общечеловеческим ценностям. Подробно проанализированы принципы и основные задачи системного взаимодействия образовательных учреждений, семьи, махалли и общественных организаций. Показана совместная ответственность учителей и родителей в защите молодежи от информационных атак и духовных угроз, укреплении у них идеологического иммунитета и воспитании самостоятельно мыслящей гармонично развитой личности.

Ключевые слова: Педагогическое сотрудничество, семья, махалля, школа, духовно-нравственное воспитание, идеологический иммунитет, глобализация, национальные ценности, ответственность родителей, совершенный человек.

Abstract: This article highlights the role of pedagogical cooperation in preventing the emergence of a negative vacuum in the spiritual

world of youth during a period of intensive information exchange and in fostering a sense of respect for national and universal human values. The principles and main tasks of systemic interaction between educational institutions, families, mahallas, and public organizations are analyzed in detail. The joint responsibility of teachers and parents is shown in protecting youth from information attacks and spiritual threats, strengthening their ideological immunity, and raising a harmoniously developed individual who thinks independently.

Keywords: Pedagogical cooperation, family, mahalla, school, spiritual and moral education, ideological immunity, globalization, national values, parental responsibility, a perfect person.

Global axborot almashuv davri shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini bolalikdan boshlab shakllantirishimiz zarur.

Ta’lim-tarbiyaning mana shunday tashkiliy-metodik tamoyillaridan biri bu – pedagogik hamkorlikdir. Ya’ni oila, maktab va mahalla, jamoatchilik tashkilotlari hamkorligida yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning dolzarb milliy parametrlari o‘z ichiga xalqimizning uzoq asrlar davomida shakllanib kelayotgan qadriyatlarini chuqur singdirish, vatanning sha’ni va obro‘sini ko‘zlab, yuksak marralar sari intiluvchi munosib farzand bo‘lishi uchun hamkorlik dasturlari asosida ish olib borish muhim.

Bugungi kunda o‘quvchi ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamida globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin. Har bir ota-ona o‘z farzandi kamolini ko‘rish uchun uni voyaga yetkazadi, albatta, bu jarayon o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi.

Xalqimizda bir naql bor: “Nima eksang, shuni o‘rasan” – shu naqlni boshqa talqinda aytib ko‘raylik: “Nima o‘rishni xohlasang, shuni ek”. Ota-ona farzandlariga mol-mulk, uy-joy, avtomobil va boshqa qimmatbaho moddiy boyliklarni berishi mumkin, lekin tarbiya, baxtni topib bera oladimi? Bunga o‘zlarining qanday tarbiya ko‘rganlik darajasi bilan erishiladi. Ota o‘g‘lini yetaklab ketayotib, “o‘g‘lim, qadamingni o‘ylab bos” deb aytsa, o‘g‘li shunday javob beribdi: “ota, siz qanday qadam bossangiz, men shunday yuraman, chunki men sizga ergashyapman".

O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, o‘z Vatani va xalqiga sodiq fuqaroni shakllantirish bo‘yicha maktablarning ota-onalar, oilalar, mahalla qo‘mitalari, Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi

bo‘linmalari, jamoat tashkilotlari va jamg‘armalar bilan mustahkam o‘zaro hamkorligi amalga oshiriladi.

Tarbiya jarayonida ota-onalar va o‘qituvchilarning bolalarni ijtimoiy foydali ishlarga tortish borasidagi mas’uliyati nihoyatda muhimdir. Tarbiyaga oid bilim berish muammosi faqat ota-onalarning ishi bo‘lib qolmasdan, balki barchaning ishi, keng ma’noda davlat ahamiyatiga molik ishdir.

Ta’lim muassasalarining vazifalari:

- bolalarga ta’lim berishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalaridan o‘rinli foydalanishga shart-sharoit yaratish;

- o‘quvchi-yoshlarning ta’lim-tarbiya olish jarayonida turli xil chalg‘ituvchi vositalarning zarari va ular oqibatlarining oldini olish bo‘yicha keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

- hozirgi murakkab sharoitda yosh avlod ongi va shuuriga ta’sir etishga qaratilgan ma’naviy tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet hosil qilish;

- ta’lim muassasalarida yoshlarning birorta kasb-hunarni egallashi uchun poydevor yaratish;

- yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ularni istiqlol g‘oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

- o‘quvchi-yoshlarning sport turlari bilan shug‘ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish, ularning bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish.

Oila, mahalla, ta’lim muassasalari hamkorligida quyidagi tamoyillar va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo‘ladi:

- ta’lim va tarbiya jarayonida hamkorlik harakatlarining ish birligi;

- tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg‘unligi;

- hamkorlik jarayoni subyektlarining teng huquqligi;

- faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;

- hamkorlik ishlarining ilmiyligi.

Maktabning tom ma’noda tarbiya markaz rolini o‘ynashi uchun o‘qituvchi va ota-onalarning maqsad va vazifalari, ularning amaliy faoliyatlari bir-birlari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi shart. Bu borada maktabning eng muhim vazifasi ota-onalar o‘rtasida ijtimoiy tarbiyaviy muhitni sog‘lomlashtirish borasidagi ishlarni jonlantirish, takomillashtirish oila va maktab aloqasini mustahkamlovchi omildir. Maktabning ota-onalar jamoatchiligi bilan aloqa qilishida o‘qituvchi va tarbiyachilarga yaqindan yordam beruvchi bo‘g‘in maktab ota-onalar

qo‘mitasidir. Mazkur qo‘mita qabul qilingan umumiy qoidalar asosida ota-onalar jamoatchiligini maktab hayotiga, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarga jalb qilishi lozim.

Bolalarni tarbiyalash ota-onalarning muqaddas burchidir. Axloqan pok, ma’naviy dunyosi boy oila deganda, biz katta va kichiklarning o‘zaro hurmati, bir-birlariga yordami, bir-birlariga izzat va hurmati tushuniladi. Demak, maktab mukammal tashkilot sifatida barcha tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etishi lozim. O‘z o‘qituvchilar jamoasini uyushtira olgan, jamoatchilikni bolalar tarbiyasiga yo‘naltira olgan, ularning ota-onalarini yaxshi bilgan maktab ma’muriyatigina tarbiyaviy yutuqlarni qo‘lga kirita oladi. Bunday maktablar esa o‘z atrofidagi zavod, fabrika, jamoa va davlat xo‘jaliklari, otaliqqa olgan korxonalar bilan aloqani mustahkamlab, o‘quvchilarning maktabdan tashqari bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etmoqdalar, qarovsiz, tarbiyasi og‘ir bolalarni o‘z nazoratlariga olmoqdalar. Bunday xayrli ishlarda ko‘plab ota-onalar maktab bilan yaqindan aloqada bo‘lib o‘quvchilar tarbiyasi yuzasidan o‘qituvchilar jamoasi bilan bamaslahat ish olib borishmoqda.

Yuqoridagi usullarning faol qo‘llanishi, ota-onalar bilan o‘tkazilgan tarbiyaviy suhbatlar huquq va majburiyatlar haqidagi bilimlar, ularni zamonaviy yoshlar tarbiyasi muammolariga jalb etish, milliy tarbiyani mahalla, mahalla oqsoqollari kengashlari faoliyati yo‘nalishiga aylantirish va ota-onalarning tarbiyachilar sifatidagi faolliklarining oshishiga olib keldi. Buning natijasida o‘quvchilarimizning axloqiy tarbiyasida hech qanday yot g‘oyalarga o‘rin qolmaydi.

Shundan kelib chiqqan holda, vatanimiz kelajagi bo‘lgan aziz farzandlarimizni ma’nan boy, axloqan yetuk, intellektual salohiyatli qilib tarbiyalash, avvalo, ota-ona, mahalla, ta’lim muassasasi va keng jamoatchilikning muqaddas burchidir.

Hamkorlik tarbiyaviy ishlar dasturlari yoshlarni insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik tamoyillari asosida yuksak odamiylik va fuqarolik burchiga sadoqatlilik ruhida tarbiyalash, mustaqil fikriga ega, tafakkuri ozod erkin shaxsni, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo‘la oluvchi, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qodir komil insonlarni kamol toptirish g‘oyalarini qamrab olishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160 sonli Qarori.

1. Mirziyoyev Sh. Tartib-intizom va mas'uliyatni kuchaytirish, jinoyatchilikning oldini olish muhitini mustahkamlash – huquqbuzarlik profilaktikasi samaradorligining asosiy omilidir. Xalq so'zi. 2017 yil 16 noyabr, № 231 [6925]. 1- bet.

3. Qaraxonova L. M. "Farzand Tarbiyasida Mahalla, Maktab va Oila Birligi – Hamkorlik Pedagogikasining Mazmuni Sifatida". Farzand Tarbiyasida Kollaborativ Texnologiyalardan Foydalanish Sohasidagi Xalqaro Tajribalar: Xalqaro Ilmiy-Amaliy Anjumani Materiallari To'plami, Science and Innovation, 22 aprel 2025, Toshkent, b. 141-45.

4. Qaraxonova L. M. "O'quvchilarda Axloqiy Sifatlarni Tarbiyalashda Oila-Mahalla Hamkorligi Masalalari". Tarbiyaviy Jarayonlarni Boshqarishning Xalqaro Modellarini Qo'llash Mexanizmlari: Muammolar va Yechimlar: Xalqaro Ilmiy-Amaliy Anjumani Materiallari To'plami, Science and Innovation, 3 iyun 2025, Toshkent, b. 75-78.

5. Qaraxonova L. M. "Tarbiya Shakllarini Maktab-Oila-Mahalla Hamkorligida Tashkil Etish Mexanizmlari". Uzluksiz Ta'lim, no. 2, 2025, O'zPFITI, b. 70-74.